

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.R.Kapizova, I.I.Zokirov</b> Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili (Sharqiy Farg'ona hududi misolida) .....	101
<b>R.N.Mo'minova</b> Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari.....	106
<b>S.D.Dadaev, D.A.Paluaniazova</b> О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого рогатого скота Каракалпакстана .....	110
<b>S.B.Orifov, F.R.Xolboyev</b> Hind chumchug'i- <i>Passer indicus</i> ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati ....	116
<b>N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva</b> Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) .....	121
<b>M.A.Axmadjonova</b> Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Sitona</i> Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari.....	127
<b>V.A.Karimov, M.Nazarov</b> Jadal texnologiyada arpa yetishtirish .....	133

## GEOGRAFIYA

<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b> Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish .....	142
<b>I.O.Sulaymonov</b> O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlarini .....	146
<b>Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev</b> Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi .....	150
<b>I.Aripov, R.Mariya</b> Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining iqtisodiy baholanishi .....	154
<b>A.U.Usmonov, A.K.Ergashev</b> Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari (Vobkent tumani misolida) .....	161
<b>O.N.Xakimov</b> Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi .....	166
<b>O.N.Xakimov</b> Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasi tadqiq qilishdagi o'rni.....	178

## ILMIY AXBOROT

<b>Y.E.Altiboyev</b> Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili .....	190
<b>A.A.Akramov</b> Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli.....	195
<b>M.J.Urinov</b> Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga falsafiy tavsif .....	199
<b>B.F.Abdishukurov</b> Markaziy Osiyodagi hududiy-chegaraviy muammolar (1924-yildan keyingi voqealar xususida).....	203
<b>A.M.To'rayev</b> Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish ....	207
<b>Sh.M.Kadirov</b> Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	210



UO'K: 101.1

**KAMBAG'ALLIKNING SIVILIZATSION KO'CHISH DINAMIKASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARIGA FALSAFIY TAVSIF****ФИЛОСОФСКОЕ ОПИСАНИЕ ДИНАМИКИ ЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ МИГРАЦИИ БЕДНОСТИ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ****A PHILOSOPHICAL DESCRIPTION OF THE DYNAMICS OF THE CIVILIZATION MIGRATION OF POVERTY AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS****Urinov Murodjon Jumanovich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Maqolada kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi, nazariy-metodologik asoslari, tizimli-funksional tahlili, kambag'allikni qisqartirish strategiyasining istiqboldagi vazifalari va yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье рассматривается динамика цивилизационной миграции бедности, теоретико-методологические основы, системно-функциональный анализ, будущие задачи и направления стратегии снижения бедности. Также философски анализируется динамика цивилизационной миграции бедности и ее особенности.

**Abstract**

The article examines the dynamics of civilizational migration of poverty, theoretical-methodological foundations, systematic-functional analysis, future tasks and directions of the poverty reduction strategy. Also, the dynamics of civilizational migration of poverty and its specific features are philosophically analyzed.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, sivilizatsiya, sivilizatsion ko'chish, dinamika, kambag'allikni qisqartirish strategiyasi, istiqbol, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos.

**Ключевые слова:** бедность, цивилизация, цивилизационная миграция, динамика, стратегия сокращения бедности, перспектива, социальная защита, социальное состояние, структурно-функциональный анализ, теоретико-методологические основы.

**Key words:** poverty, civilization, civilization migration, dynamics, poverty reduction strategy, perspective, social protection, social state, structural-functional analysis, theoretical-methodological basis.

**KIRISH**

XXI asrning ijtimoiy muammolaridan biri – kambag'allikka barham berish, shu maqsadda yangi ish o'rinlarini ko'paytirish va aholini iqtisodiy tashabbuskorligini kuchaytirish uchun kambag'allikni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi. Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib, avvallari bu kategoriyaning o'rniga yumshatish qabilida "kam ta'minlanganlik" tushunchasi ishlatilib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Kambag'allik va qashshoqlikka ta'sir etuvchi omillar, kambag'allikni qisqartirish muammolarini bartaraf etish va kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasiga, kambag'allik va qashshoqlik masalalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri, qashshoqlik chegaralari belgilashga oid tadqiqotlar qaratilgan tadqiqotlar Dj.Keyns, A.Marshall, D.Rikardo, A.Sen, M.Kremer, A.Banerdji, Y.Dyuflo, G.Y.Anderson, D.Saks, B.S.Rauntri, A.S.Diton, D.Adjemog'li va D.Robinson, A.P.Aleksandrov, A.V.Karev, Y.Y.Rumyanseva, A.A.Razumov, O.S.Abramova,

L.M.Xusnutdinova, Y.G.Odegov, A.V.Vaxabov, B.X.Umrzaqov, M.K.Abdullayeva, L.N.Ovcharovalarning falsafiy-siyosiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. Kambag'allik tushunchasi nafaqat hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmaslik va daromadlarning yetishmovchiligini, balki sifatsiz ovqatlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalana olmaslik hamda munosib uy sharoitlariga ega bo'lmaslik kabi sharoitlarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida «kambag'al» so'zi "kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yo'qchilik yoki muhtojlikda yashamoq" ma'nolari qayd etilgan. Umuman olganda o'zbek tili boy til ekanligini e'tirof etib, kambag'allik so'zi, bir qancha so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan qashshoq, faqir, g'arib, nochor, muhtoj, bechora, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabi so'zlar bilan ham ifodalanadi.

Jahon banki ta'rifiga ko'ra, "kambag'allik – ko'p o'lchamga ega bo'lib, insonlarni aniq daromadlarga ega bo'lmasligidir. Bu kam daromadga ega insonlarni yashash uchun zarur bo'lgan asosiy tovar va xizmatlarni yetarli darajada sotib ololmasligi, shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'limning yomonligi, toza suv va sanitariya sharoitining yomonlashib borishi, xavfsizlikni yetarli emasligini bildiradi". Bu ta'rifning muhim jihati shundaki, kambag'allikning sababi sifatida yetarlicha bo'lmagan daromadlarga e'tibor beriladi. Aholi daromadlarini kamligi yoki umuman yo'qligi tirikchilik vositalarini sotib ololmasligini keltirib chiqaradi. Yetarlicha ovqatlanmaslik esa kasallik ham kambag'allikka yo'l ochadi. Umuman olganda "kambag'allik" nisbiy, noaniq va ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, ma'lum bir jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, kambag'allik jamiyatda chinakam ishtirok etish uchun asosiy imkoniyatlarning yetishmasligini anglatadi. Bu oilani boqish va kiyintirish, maktabga borish yoki kasalxonada davolanish, o'z yerlarida oziq-ovqat yetishtirish yoki tirikchilik qilish imkonini beradigan ishga ega bo'lish imkoniyatlarining yo'qligi, shuningdek, yashash imkoniyatining yo'qligida namoyon bo'ladi.

Qashshoqlik bo'lsa, odamlarning, uy xo'jaliklarining va jamoalarning ishonchsizligi, nochorligi va ijtimoiy chetlanishini anglatadi. Bu zo'ravonlikka qarshi zaiflikni va ko'pincha rivojlanmagan va xavfli joylarda, toza suv va kanalizatsiyadan mahrum bo'lishni anglatadi.

Ayrim olimlarning fikricha, kambag'allikni tushuntirib bera oladigan eng to'g'ri yondashuv sotsiologik konsepsiya bo'lib, unda qashshoqlikka qarshi kurashish dasturlariga qaramasdan, kambag'allikning nima uchun mavjudligi, «otadan bolaga o'tishi»ga tushuntirish beriladi. Xususan, kambag'allikning antropologik aspektlari bilan shug'ullangan Oskar Luis qashshoqlikni submadaniyat deb ataydi. Ya'ni kambag'allik uni doimiy ravishda jonlantirishga intiladigan mexanizmlarni ishlab chiqadi, ayniqsa, bu odamlarning dunyoga bo'lgan qarashlari, oldilariga qo'ygan maqsadlari, bolalarni tarbiyalashning xarakterida ko'rinadi. Uning ta'kidlashicha, kambag'allar jamiyat a'zolari sifatida doimo o'zlariga qashshoqlik yukini olishadi, bu esa avtonom submadaniyatning shakllanishiga olib keladi.

Buning sababi shundaki, bolalar shu muhitda o'sadi va shunga mos ravishda ularning xulq-atvorini shakllantiradi. Natijada ularda qashshoqlik bilan bog'liq kompleks hissiyotlar paydo bo'lib, jamiyatning eng quyi pog'onasidan chiqib keta olmaslik tuyg'usi kelib chiqadi. Luisning yozishicha, qashshoqlik madaniyatiga mansub odamlarda doimiy cheklanish, ojizlik va qaramlik hissi paydo bo'ladi. Ular o'z mamlakatlaridagi musofirlarga o'xshab, mavjud institutlar ularning manfaatini qondirmasligiga ishonadi.

Qashshoqlik turli sabablarga ko'ra vujudga keladi. Ushbu sabablarni quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Iqtisodiy sabablar –ishsizlik, iqtisodiy notenglik, shu jumladan, ish haqi va mehnat unumdorligining pastligi, sanoatning raqobatbardosh emasligi.

2. Ijtimoiy-tibbiy sabablar – keksalik, nogironlik, kasallanishning yuqori darajasi.

3. Demografik sabablar – to'liqsiz oila, mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining yuqori soni, aholi sonining iqtisodiy resurslarga nomuvofiq ravishda oshib ketishi.

4. Ta'lim va kasbiy kvalifikatsion sabablar - ta'limning past darajasi, yetarli darajada professional kasbiy tayyorgarlikning mavjud emasligi.

## ILMIY AXBOROT

5. Siyosiy sabablar –harbiy nizolar, majburiy migratsiya.

6. Mintaqaviy-geografik sabablar – hududlarning notekis rivojlanishi.

7. Diniy-falsafiy va psixologik sabablar – hayot tarzi sifatida asketizm, kambag'allikning targ'ib qilinishi.

Rus olimlaridan I.Sidorchuk quyidagi mezonlardan foydalangan holda kambag'allikni aniqlashni taklif etadi: yashash joyining bo'lishi, to'laqonli ovqatlanish va ichimlik suviga egalik, minimal ta'lim olish imkoniyati va sog'liqni saqlash imkoniyati.

I.Sazanov kambag'allikni absolyut va nisbiy darajalarda bo'ladi, deb hisoblaydi. Shuningdek u kambag'allik kategoriyasi dastlab XIX asrning oxirlari XX asrning boshlanishida ingliz sotsiologlari S.Rountri va Ch.Buta tomonidan fanga olib qirilganligiga e'tibor qaratadi. Ushbu olimlar yashash minimumi – kambag'allik - daromad chegarasini fanga olib kirishadi. Ekspertlar ushbu holatda oziq-ovqat, kiyimlar va yashash sharoiti bo'lishini mezonlar sifatida ta'kidlashadi. Ushbu mezonlarga javob bera olmaslik esa, absolyut kambag'allikni anglatishini qayd etib o'tadi.

G.Kosharnaya va L.Karimova o'zlarining ilmiy izlanishlarida ushbu kategoriyaga quyidagicha yondashuvni bayon qilishadi. Unga ko'ra, aholining hayot farovonligiga erishishi va uni turli kategoriyalar orqali aniqlashni taklif etadi:

1) farovonlik – jismoniy va intellektual imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali insonni har tomonlama rivojlanishi;

2) kambag'allik –iste'mol miqdorini saqlab qolinishi va mehnatga layoqatli bo'lish;

3) qashshoqlik – iste'molning minimal darajasi bo'lib insonning biologik imkoniyatlariga ta'minlanishini anglatadi. Bizningcha, ushbu xulosalarda kambag'allikni aniqlashga qaratilgan yondashuvlar keltirildi. Ularda asosiy e'tibor hayot darajasini belgilab beruvchi omillar – yashash sharoiti, ovqatlanish va kiyim bilan ta'minlanganlik kabi jihatlarga qaratildi. Bu esa, ushbu tovar va xizmatlarni sotib olish uchun minimal daromad darajasini belgilashning zaruratini keltirib chiqaradi.

Xorijiy olimlardan pokistonlik M.Majid va M.Malik tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida savodxonlik darajasi kuchli ta'sir ko'rsatishi keltiriladi. Bunda insonlarning kambag'allikka tushib qolishiga oila boshlig'ining tajribasi, yoshi, jinsi va bandligi kabi omillar ta'sir qilishini keltirib o'tadi. Shuningdek, oila boshlig'i sifatida ayol kishi bo'lishi kambag'allikni keltirib chiqarishga ko'proq ta'sir qiladi degan g'oyani ilgari suradi. Sababi ayollarni ta'lim olishga va daromad topishdagi imkoniyatlari yuqori emasligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar asosida birinchidan, ta'lim olganlik darajasi bilan kambag'allik teskari proporsional ekanligi, ikkinchidan qishloq joylardagilar kambag'allikka kamroq tushayotganligi, uchinchidan shaharlashib borish kambag'allikni pasaytirishini va qishloq hududi esa oshishiga olib kelishini qayd etib o'tadi. O'z navbatida, tajriba, yosh va qishloq xo'jaligida band bo'lish kambag'allikni keltirib chiqarmasligini asoslab beradi.

AQShda ijtimoiy himoya siyosati targ'ibotchilaridan biri M.Fridmen daromadlarning notengligi omillari statistik taqsimotni aniq ko'rsatmasligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra,iste'mol jihatidan daromadlarning taqsimoti ularni yuzaga keltiruvchi sabablarga bog'liq va u buni asoslab beradi. Daromadlarning notengligiga sabablardan biri insonlarning qobiliyati teng taqsimlanmaganligi sababli ushbu tendensiya yuzaga kelganligini ta'kidlagan olimlardan – biri X.Stakle hisoblanadi. Shu o'rinda, G.Fordning muhim bir iborasini eslash lozim. "Yeng zo'r ish – bu yuqori haq to'lanadigan xobbi" deb ta'kidlab o'tganligi inson qobiliyatini to'g'ri yo'naltirilishi lozimligi va savodxonlikni shu yo'nalishda rivojlantirish kerakligini o'zida aks ettiradi.

J.Minser inson kapitaliga investitsiyalar va daromadlarning tengsizligi omillarini aniqlagan va ularni baholagan. Insonlar daromadining notengligi inson kapitaliga qilingan investitsiyalarga bog'liq ekanligi va investitsiya jarayoni erkin tanlovga asoslanishini qayd etib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, katta maosh ko'p o'rganishni talab etadi. Shu boisdan, kasblararo farq ularni o'rganishdagi farqlar bilan izohlanadi.

### XULOSA

Bir kasbning bir necha egalari daromadlari o'rtasidagi farq inson kapitali tajribasiga qilingan investitsiya muddatining uzaytirilganligi bilan bog'liq. Umuman olganda, ta'lim, yosh va kasb kabi omillar insonlar daromadlarini tabaqalanishida asosiy ekanligi asoslab beriladi. Kambag'allikni

aniqlashga yordam beradigan omil sifatida daromadlarning shakllanishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. O'z navbatida, daromadni shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi sabablar va omillarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu esa, kambag'allikni bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Majeed M.T., Malik M.N. Determinants of Household Poverty: Empirical Evidence from Pakistan. *he Pakistan Development Review* 54:4, Part II (Winter 2015) pp. 701–718
2. Milton Friedman A Theory of the Consumption Function. Princeton, N.J. Princeton University Press, 1957.
3. Stachle H. Ability, Wages and Income. *Review of Economics and Statistics*, XXV, February 1943, pp. 77-87.
4. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. / Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. - Т.: "ABU -MATTBUOT-KONSALT", 2017. –Б.261-262.
5. Кошарная Г.Б., Каримова Л.Ф. Основные подходы к измерению уровня бедности в современной России//<https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-izmereniyu-urovnya-bednosti-v-sovremennoyrossii/viewer>
6. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" ДИИ. 2006. –Б. 306.
7. Сазанов И.С. Бедность: Национальные и международные критерии//Челябинский гуманитарий. – 2012, -№3(20). – С.80-84
8. Сидорчук И.Б. Критерии бедности и показатели ее определения. <https://cyberleninka.ru/article/n/kriteriibednosti-i-pokazateli-ee-opredeleniya/viewer>